

**SHARQ MUTAFAKKIRLARINING PEDAGOGIK QARASHLARI UYG'UNLIGI
ASOSIDA TARBIYA TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH**

**IMPROVING THE UPBRINGING SYSTEM BASED ON THE HARMONY OF
THE PEDAGOGICAL VIEWS OF EASTERN THINKERS**

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ ВОСПИТАНИЯ НА ОСНОВЕ
ГАРМОНИИ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ВЗГЛЯДОВ ВОСТОЧНЫХ МЫСЛИТЕЛЕЙ**

Abdulfattoyeva Adibaxon Zafarjon qizi

Farg'ona davlat universiteti Pedagogika nazariyasi va tarixi

1-kurs magistranti

adibaxon1994@gmail.com

+998916870002

Annotatsiya: Ushbu maqola Sharq mutafakkirlarining pedagogik qarashlari asosida tarbiya tizimini takomillashtirish masalalarini o'rganishga bag'ishlangan. Maqolada ta'lim va tarbiyaning uyg'unligi, o'qituvchi-shogird munosabatlari, axloqiy va estetik tarbiya, shuningdek, shaxsni jamiyatga foydali va ma'naviy barkamol tarzda shakllantirish masalalari tahlil qilinadi. Sharq pedagogik merosi misolida, Abu Nasr Farobiy, Ibn Sino va boshqa mutafakkirlarning nazariy yondashuvlari o'rganilgan va ularning zamonaviy ta'lim tizimida tatbiqi imkoniyatlari ko'rib chiqilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, qadimiy Sharq pedagogik an'analari bugungi kunda ham yosh avlodni bilimli, axloqiy va ma'naviy barkamol shaxs sifatida tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: Sharq pedagogikasi, tarbiya tizimi, ta'lim va tarbiya uyg'unligi, axloqiy tarbiya, estetik tarbiya, o'qituvchi-shogird munosabatlari, ma'naviy barkamollik.

Abstract: This article is devoted to the study of improving the education system based on the pedagogical views of Eastern thinkers. It analyzes the unity of education and upbringing, teacher-student relationships, moral and aesthetic education, as well as the development of individuals into socially useful and morally mature members of society. Using examples from the Eastern pedagogical heritage, the theoretical approaches of thinkers such as Abu Nasr Farabi and Ibn Sina are examined, along with their applicability in modern education systems. The results of the study show that the pedagogical traditions of the Ancient East remain highly relevant today for educating young people to become knowledgeable, morally responsible, and spiritually developed individuals.

Keywords: *Eastern pedagogy, education system, unity of education and upbringing, moral education, aesthetic education, teacher-student relationship, spiritual development.*

Аннотация: *Статья посвящена изучению совершенствования системы воспитания на основе педагогических взглядов восточных мыслителей. В ней анализируется единство образования и воспитания, взаимоотношения учителя и ученика, нравственное и эстетическое воспитание, а также формирование личности как социально полезного и морально зрелого члена общества. На примере восточного педагогического наследия рассматриваются теоретические подходы мыслителей, таких как Абу Наср Фараби и Ибн Сина, и их применение в современных системах образования. Результаты исследования показывают, что педагогические традиции Древнего Востока остаются актуальными и сегодня для воспитания молодых людей, способных стать знающими, морально ответственными и духовно развитыми личностями.*

Ключевые слова: *Восточная педагогика, система образования, единство обучения и воспитания, нравственное воспитание, эстетическое воспитание, отношения учитель-ученик, духовное развитие.*

Bugungi globallashtirish va tezkor ijtimoiy o'zgarishlar sharoitida ta'lim va tarbiya tizimini takomillashtirish masalasi pedagogika fanining eng dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy jamiyat barkamol, mustaqil fikrlaydigan, yuksak ma'naviyat va axloqiy fazilatlarga ega shaxslarni tarbiyalashni taqozo etadi. Bu esa ta'lim va tarbiya jarayonlarini uzviy birlikda tashkil etishni, ularning tarixiy ildizlarini chuqur o'rganishni talab qiladi. Shu nuqtayi nazardan, Ta'lim va tarbiya insoniyat taraqqiyotida ajralmas jarayon hisoblanadi. Sharq mutafakkirlari esa bu jarayonni yagona tizim sifatida ko'rib, shaxsning bilim, axloqiy va ma'naviy kamolotini uyg'un rivojlantirishni asosiy maqsad qilib belgilashgan. Qadimgi Sharq falsafasi, diniy e'tiqodlar va pedagogik meros yosh avlodni tarbiyalashda mustahkam nazariy va amaliy asos yaratgan. Shu sababli, Sharq mutafakkirlarining pedagogik qarashlari zamonaviy ta'lim tizimlarini takomillashtirishda katta ahamiyatga ega bo'ladi.

Pedagogik uyg'unlik tamoyili - ta'lim va tarbiyaning bir-biri bilan bog'liqligi - Sharq pedagogik merosining markaziy g'oyasini tashkil qiladi. Bu tamoyil shaxsni nafaqat bilim bilan ta'minlash, balki uning axloqiy fazilatlarini rivojlantirish, estetik did va ma'naviy ongini shakllantirish orqali jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiladi. (Mardonova & Sharipova, 2024)

Bugungi kunda global ta'lim tizimlarida yuzaga kelgan yangi talablar - barkamol shaxslar tayyorlash, ularning ijtimoiy mas'uliyatini rivojlantirish va ma'naviy qadriyatlarni

singdirish - qadimgi Sharq pedagogik qarashlari bilan to'liq uyg'unlashadi. Shu nuqtai nazardan, Sharq mutafakkirlarining ta'lim-tarbiya tizimlari haqidagi qarashlarini o'rganish va zamonaviy pedagogik jarayonlarga tatbiq etish dolzarb vazifa hisoblanadi. Sharq pedagogik merosi nazariy va amaliy jihatdan boy, shaxsni bilim va axloqiy fazilatlar bilan uyg'un rivojlantirishga qaratilgan yagona tizim sifatida e'tirof etiladi. Shu asosda, tadqiqotning maqsadi - Sharq mutafakkirlarining pedagogik qarashlari uyg'unligi asosida zamonaviy tarbiya tizimini takomillashtirish yo'llarini aniqlashdir. Sharq mutafakkirlarining pedagogik qarashlari insonni har tomonlama kamol toptirishga qaratilgan falsafiy va pedagogik an'analarga asoslangan. Ularning nazariy yondashuvlarida ta'lim va tarbiya ajralmas tizim sifatida qaraladi. Bu tizim shaxsni nafaqat bilimli, balki axloqiy, ma'naviy va estetik jihatdan ham rivojlantirishga xizmat qiladi. Sharq pedagogik merosida ta'limning markaziy maqsadi insonni uyg'un rivojlantirish va jamiyatga foydali shaxs sifatida shakllantirishdir. Bu qarashlar nafaqat qadimgi davrga xos bo'lib, balki bugungi kunda ham zamonaviy ta'lim tizimlarini takomillashtirishda muhim ahamiyatga ega.

Sharq pedagogik qarashlarining eng muhim tamoyillaridan biri ta'lim va tarbiyaning uyg'unligidir. Bu tamoyil shaxsga bilim berish bilan birga axloqiy fazilatlarni singdirishni, ma'naviy barkamollikni rivojlantirishni, shuningdek estetik did va hissiy madaniyatni shakllantirishni o'z ichiga oladi. Abu Nasr Farobiy, Ibn Sino va Alisher Navoiy kabi mutafakkirlar ta'lim jarayonini shaxsni ma'rifat sari yetaklovchi bosqichli tizim sifatida qarashgan. Ularning fikricha, shaxsning aqliy va ruhiy rivojlanishi ta'limning ajralmas qismi bo'lishi kerak. Sharq pedagogik an'analarda axloqiy tarbiya markaziy o'rin tutadi. Mutafakkirlar ta'lim jarayonida yoshlarning halollik, adolat, mehr-oqibat, imyon-e'tiqod kabi fazilatlarini shakllantirishni asosiy vazifa deb bilganlar. Bu yondashuv orqali tarbiya jarayoni shaxsni jamiyatda mas'uliyatli va foydali a'zoga aylantirishga xizmat qiladi. Abu Nasr Farobiy ta'limning asosiy vazifasi shaxsni aqliy, hissiy va axloqiy jihatdan rivojlantirish deb qaragan. Shu nuqtai nazardan, bugungi zamonaviy kompetensiya asosidagi ta'lim tizimi bilan Sharq pedagogik merosi o'zaro uyg'unlikda hisoblanadi.

Ibn Sino ta'lim-tarbiyani shaxsning ruhiy barqarorligini oshiruvchi jarayon sifatida ko'rgan. U pedagogik jarayonni bosqichma-bosqich, murabbiyning yo'l-yo'riqlari orqali shogirdni axloqiy va aqliy jihatdan rivojlantirish vositasi sifatida tasvirlagan. Shu orqali shaxs ichki dunyosi va tashqi faoliyatini uyg'unlashtiradi.

Sharq pedagogikasida o'qituvchi va shogird o'rtasidagi munosabatlar o'ta muhim hisoblanadi. O'qituvchi faqat bilim manbai emas, balki shaxsning ma'naviy rivojlanishida rahbar, yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi sifatida qaraladi. Bu munosabat shogirdning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi, ijodkorligini oshiradi va shaxsning jamiyatga foydali bo'lishini ta'minlaydi. Bu pedagogik yondashuv bugungi zamon ta'lim tizimida mentorlik va

pedagogik yetakchilik kontsepsiyalari orqali yangicha talqin etilgan. Sharq pedagogik qarashlarida estetik tarbiya ham katta ahamiyatga ega. Badiiy asarlar, musiqa, adabiyot va san'at orqali shaxsning go'zallikni anglash qobiliyati rivojlantiriladi. Bu jarayon shaxsning ichki dunyosini boyitadi, axloqiy fazilatlarni mustahkamlaydi va jamiyatda barkamol shaxs sifatida shakllanishiga yordam beradi.

Sharq pedagogik merosining printsiplari zamonaviy ta'lim tizimida keng qo'llanilishi mumkin. Ta'limning maqsadi nafaqat bilim berish, balki shaxsni har tomonlama kamol toptirish va jamiyatga foydali shaxs sifatida shakllantirishdir. Bu tamoyil zamonaviy kompetensiya asosida ta'lim konsepsiyasida ham aks etadi, u yerda axloqiy, ijtimoiy va madaniy ko'nikmalar ham bosh mavzulardan hisoblanadi.

Sharq mutafakkirlarining pedagogik qarashlarini o'rganish va zamonaviy tarbiya tizimiga tatbiq etish yosh avlodni ma'naviy barkamol va jamiyatga foydali shaxs sifatida shakllantirishning samarali yo'li hisoblanadi. Shu asosda tarbiya tizimini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari - axloqiy-ma'naviy tarbiya, estetik rivojlanish, o'qituvchi-shogird munosabatlarini mustahkamlash va ta'lim-tarbiyani uyg'unlashtirishdir. Shu yo'nalishlar asosida shakllangan tarbiya tizimi nafaqat bilimli balki jamiyatga foydali shaxsni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Qadimgi Misrda ta'lim va tarbiya og'zaki ijod, diniy matnlar va adabiy asarlar orqali amalga oshirilgan. Ertaklar, nasihatnomalar va she'riy asarlar yosh avlodni axloqiy jihatdan tarbiyalashda muhim vosita bo'lgan (Abdullayev, 2020). Misr maktablarida o'quvchilardan o'qituvchining so'zsiz ko'rsatmalariga bo'ysunish, diqqat bilan tinglash va eslab qolish talab qilingan. Intizomni mustahkamlash maqsadida jismoniy jazolash ishlatilgan, bu esa o'sha davr ijtimoiy talablariga mos kelgan.

Mesopotamiya hududida ta'lim tizimi yanada tizimli shakllangan. Shumer, Akkad, Babil va Ossuriya davlatlarida miloddan avvalgi uchinchi ming yillikda edubba deb atalgan maktablar faoliyat yuritgan. Bu maktablarda yozish, hisob, grammatika, adabiyot, astronomiya va matematika fanlari o'qitilgan. O'quvchilar bilimlarni mustahkamlash uchun matnlarni loy lavhalarga ko'chirib yozganlar va ko'p marotaba takrorlash orqali o'zlashtirganlar (Masharipova, 2012). Ta'lim jarayonida musiqa va qo'shiqchilik mashg'ulotlari majburiy bo'lib, nutqni rivojlantirishga yordam bergan. Shu tariqa o'qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki tarbiyachi sifatida faoliyat yuritgan.

Qadimgi Hindistonda ta'lim va tarbiya Vedalar va Upanishadlar ta'limotiga asoslangan. Shaxs kamoloti mantiqiy tafakkurni rivojlantirish, axloqiy fazilatlarni shakllantirish, ma'naviy o'zini anglash, jismoniy yetuklik va estetik tarbiyani o'z ichiga olgan (Khairullin, 2014). Shu davrda yoshlar shaxsiy va ijtimoiy mas'uliyatni o'rganib, jamiyatdagi o'z o'rnini anglardi.

Qadimgi Xitoyda ta'lim tizimi Konfutsiy ta'limoti asosida tashkil etilgan. O'rganish va tafakkurning uyg'unligi, shaxsni tarbiyalash orqali jamiyatni rivojlantirish g'oyasi ta'lim jarayonining markazida turgan. "O'rganmasdan fikr yuritish foydasiz, fikrlamasdan o'rganish xavflidir" degan qadimiy hikmatlar bugungi kunda ham o'z dolzarbligini saqlab qolgan. Markaziy Osiyo esa qadimdan savodxonlik va ilm-fan markazi sifatida tanilgan. Xitoy solnomalarida Samarqand aholisi besh yoshdan o'qish va yozishga o'rgatilgani qayd etilgan. Islomdan oldingi davrlardayoq savodxonlik keng tarqalgan bo'lib, keyinchalik madrasalar yirik ilmiy markazlarga aylangan. Kutubxonalar va ta'lim maskanlari ta'lim va tarbiyaning uzviy birligini ta'minlashga xizmat qilgan. Shu tariqa, Qadimgi Sharq va Markaziy Osiyoda shakllangan ta'lim-tarbiya tizimi shaxsni har tomonlama kamol toptirishga qaratilgan yagona tizim sifatida namoyon bo'lgan. U bugungi zamonaviy tarbiya tizimini takomillashtirishda muhim nazariy va amaliy manba bo'lib xizmat qiladi.

Sharq mutafakkirlarining pedagogik qarashlari uyg'un tizim sifatida insonni bilim, axloqiy, ma'naviy va estetik jihatdan rivojlantirishga xizmat qiladi. Ularning nazariy yondashuvlarida ta'lim va tarbiya ajralmas bo'lib, shaxsning ichki dunyosi va jamiyatdagi roli uyg'unlashtiriladi. Ta'lim va tarbiyaning uyg'unligi yosh avlodni faqat bilimli emas, balki ijtimoiy mas'uliyatga ega, axloqiy barkamol va madaniy yetuk shaxs sifatida shakllantirishga imkon beradi. Sharq pedagogik merosi o'qituvchi va shogird munosabatlariga katta ahamiyat beradi. Bu munosabatlar shogirdni mustaqil fikrlashga, ijodiy va tanqidiy yondashuvni rivojlantirishga yo'naltiradi. Shuningdek, axloqiy tarbiya va estetik ta'lim shaxsning ichki dunyosini boyitadi, uning jamiyatga foydali bo'lishini ta'minlaydi.

Zamonaviy ta'lim tizimida Sharq pedagogik qarashlarini tatbiq etish tarbiyaviy jarayonning samaradorligini oshiradi. Ularning printsiplari yoshlarni har tomonlama rivojlantirish, ma'naviy barkamol shaxslar shakllantirish va jamiyatga foydali fuqarolar tayyorlashda asosiy yo'nalish sifatida xizmat qiladi. Shu bilan birga, bu yondashuv milliy qadriyatlarni saqlash va global pedagogik tajribaga integratsiya qilish imkoniyatini beradi.

Sharq mutafakkirlarining pedagogik merosi nafaqat tarixiy ahamiyatga ega, balki zamonaviy ta'lim va tarbiya tizimini takomillashtirishning ilmiy asosini tashkil etadi. Shu asosda tarbiya tizimini shakllantirish va rivojlantirish yosh avlodni barkamol, ma'naviy boy va jamiyatga foydali shaxs sifatida tarbiyalashning samarali vositasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yusupov, Y. Q. (2025). The Unity of Education and Upbringing in the Ancient East and Central Asia. American Scientific Conference Proceedings, December 31, 1–17. <https://intconf.online/AMERICANSCIENTIFICCONFERENCE2025>
2. Abdullayev, Q. F. (2020). The Emergence of Folk Pedagogy and Its Development as a Scientific Discipline. Tashkent: Science Press.
3. Khairullin, I. T. (2014). History of Education and Pedagogical Thought. Kazan: Kazan University Press, pp. 6–16.
4. Masharipova, G. K. (2003). Scientific and Methodological Issues of Monitoring and Assessing Students' Knowledge in the Modern University Education System. Republican Scientific Conference Proceedings, Syrdarya, pp. 105–106.
5. Masharipova, G. K. (2012). Enhancing Youth Legal Culture in the Context of Educational Reforms. Conference Proceedings Dedicated to the 80th Anniversary of TTIESS, Tashkent.
6. Ahmedova, Z. (2025). Sharq pedagogik merosi va zamonaviy ta'lim tizimida tatbiqi. Science Education Journal, 12(3), 45–53. <https://science-education.uz>
7. Mardonova, G., & Sharipova, L. (2024). Sharq pedagogik qarashlari va axloqiy tarbiya. Pedagog Journal, 7(2), 12–28. <https://pedagogs.uz>
8. Rakhimova, N. (2025). Sharq mutafakkirlarining ta'lim-tarbiyadagi uyg'unligi. The USA Journals, 3(1), 34–46. <https://theusajournals.com>
9. European Science Publishers. (2025). Ibn Sino va Sharq pedagogik merosi. European Science Journal, 14(4), 101–115. <https://europeanscience.org>
10. GRN Journal. (2025). Sharq mutafakkirlarining pedagogik qarashlari: nazariy va amaliy jihatlari. GRN Journal of STEM Education, 9(5), 21–38. <https://grnjournal.us>
11. Journalss.org. (2025). O'qituvchi va shogird munosabatlari Sharq pedagogikasida. Journal of Contemporary Pedagogy, 8(2), 77–89. <https://journalss.org>
12. Worldly Journals. (2024). Estetik tarbiya va ma'naviy rivojlanish Sharq pedagogikasida. Worldly Journals of Education, 5(3), 55–70. <https://worldlyjournals.com>